

“TASDIQLANGAN”
“Madad Invest Bank”ATB
Boshqaruvi yig‘ilishining
2023 yil “11 yanvar dagi
01/4-sonli qaroriga
Y-ilova

**Jismoniy shaxslarga xorijiy va milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini
ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha
OFERTA SHARTNOMASI**

“Madad Invest Bank” aksiyadorlik jamiyati banki (keyingi o‘rinlarda - “Bank”) ushbu bilan mazkur ofertani qabul kilgan jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda - “Mijoz”) xorijiy va milliy valyutada talab qilib olinguncha omonat hisobvarag‘i (keyingi o‘rinlarda - “bank hisobvarag‘i” yoki “hisobvaraq”) bo‘yicha operasiyalarni amalga oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo‘lмаган buyurtmalarini bajaradi.

Ushbu shartnomaning predmeti bo‘lib mijoz tomonidan bank xizmatlariga o‘z vaqtida xaq to‘langan va ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlar bajarilgan taqdirda, mijozning bank xisobvarag‘iga kelib tushadigan pul mablag‘larini qabul qilish va hisobga kiritish hamda bank hisobvarag‘idan tegishli mablag‘larni o‘tkazishni amalga oshirish hisoblanadi.

1.ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1 Shaxsni tasdiqlovchi hujjat - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, ID karta, 16 yoshga to‘lмаган fuqarolarning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi, harbiy xizmatchilarning harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy biletin bundan mustasno), xorijiy fuqarolarning pasporti (qonun hujjatlari muvofiq xorijiy fuqarolar tegishli organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartochkasi, fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi;

1.2 Depozit (keyingi o‘rinlarda omonat deb yuritiladi) - talab qilinishi bilanoq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatda qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan milliy va chet el valyutasidagi pul summasi;

1.3 «Emissiya» - emitent bank tarafidan bank kartasini karta foydalanuvchisiga vaqtinchalik foydalanishga berish orqali muomalaga chiqarish;

1.4 «Emitent bank» - bu bank kartasining emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan kartalarga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan ularning saqlovchilari va ekvayerlar oldida naqd pulsiz hisob-kitoblarga oid qonun hujjatlari talablari asosida majburiyatlarni zimmasiga olgan, shuningdek plastik karta saqlovchilarining to‘lov operasiyalari bo‘yicha avtorizatsiyalash, tranzaksiyalarni yig‘ish va ularga iшлов berish funksiyalarini amalga oshiruvchi bank;

1.5 «Ekvayer» - bank kartalar orqali amalga oshirilgan operasiyalar bo‘yicha tovarlar (ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko‘rsatuvchi) sotuvchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi, shuningdek bank karta saqlovchisiga bcvosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul beruvchi bank;

1.6 «Bank karta» - bank tarafidan emissiya qilingan, personalizatsiyalangan, to‘lov vositasi sifatida ishlataladigan va o‘z saqlovchisiga bank hisobvarag‘idagi mablag‘lari doirasida operasiyalarni, jumladan, hisobvaraq orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish, undan naqd pul mablag‘larini olish imkonini beruvchi bank kartasi;

1.7 «**Bank karta egasi**» - bank kartasini vaqtinchalik foydalanish uchun olgan va bank karta bo'yicha to'lov operasiyalarini amalgga oshirish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs, emitent bankning mijozidir. Milliy va xorijiy valyutadagi karta bank tarafidan bank kartasi egasiga vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi;

1.8 «**Bank kartasidan foydalanuvchi**» – emitent bank bilan shartnoma asosida foydalanuvchi mijoz yoki mijoz tarafidan vakolat berilgan shaxs;

1.9 **Maxsus karta hisobvarag'i** - bank karta orqali pul mablag'lari tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;

1.10 «**Tranzaksiya**» - bank karta foydalanuvchisi tarafidan amalgga oshiriladigan, uning bankdagi hisobvarag'i debetlanishi yoki kreditlanishiga olib keladigan to'lov orderi;

1.11 «**ShIR**» - bank karta egasi tarafidan karta vositasida amalgga oshiriladigan huquqiy jihatdan tasdiqlash uchun mo'ljallangan shaxsiy identifikatsiya raqami (bank karta egasining elektron imzosi)ni anglatadi;

1.12 «**Terminal**» - Bank kartalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalgga oshirish imkonini beruvchi va bajarilgan operasiyalar bo'yicha cheklarni shakllantiruvchi qurilma;

1.13 «**Bankomat**» - Bank kartalaridan foydalanuvchiga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish rejimida naqd pul mablag'larini va bajarilgan operasiyalar bo'yicha cheklarni olish, shuningdek bank karta orqali asosiy va qo'shimcha operasiyalarni amalgga oshirish, jumladan, mablag'larni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish, bank kartaning balansi va bankdagi hisobvaraq qoldig'i holati to'g'risida axborot olish va parollarni o'zgartirish imkonini beruvchi elektron-mexanik qurilma;

1.14 «**Infokiosk**» - Bank kartalar yordamida naqd pulsiz to'lovlarni amalgga oshiruvchi va amalgga oshirilgan tranzaksiyalar haqida ma'lumotlarni taqdim etuvchi hamda terminal bank, moliya – kredit muassasalari, uyali aloqa provayderlari, ko'p tarmoqli bo'linmalarga ega bo'lgan kompaniyalar xizmatlarini taqdim etish uchun mo'ljallangan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi qurilma;

1.15 «**Stop-list**» - protsessing markazi tarafidan shakllantiriladigan va doimiy yangilanib turiladigan yo'qolgan yoki bank tarafidan hisob-kitob operasiyalarini amalgga oshirish vaqtincha to'xtatib turilgan yoki butunlay to'xtatilgan bank kartalar ro'yxati;

1.16 «**SMS xizmati**» - hisobvarag'dagi o'zgarishlar bo'yicha mijozning mobil telefoniga yuboriladigan xabarlar xizmati;

1.17 **Shaxsiy hisobvaraq varaqchasi** - shaxsiy hisobvaraq varaqchasing shakli.

1.18 **Elektron shaxsiy hisobvaraq varaqchasi** - shaxsiy hisobvaraq varaqchasing elektron shakli

1.19 **SMS xabarnoma** - omonatchining shaxsiy hisobvarag'i bo'yicha amalgga oshirilgan amaliyotlar, omonat qoldig'i to'g'risida ma'lumotlar yo'llanadigan elektron xabar.

1.20 **Shaxsiy kabinet** - bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan, iste'molchiga bank xizmatini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan axborot olish, shuningdek internet tarmog'idan foydalangan holda xabarlar almashish orqali bank bilan o'zaro hamkorlik qilish imkonini bcruvchi axborot resursi.

1.21 «**Bank tarifi**» - Operasiyalarga tegishli to'lovlar va vositachilik xaqlarining barcha turlari hamda miqdorlari belgilangan amaldagi bank tarifi (www.madadinvestbank.uz).

2. BANK XIZMATLARINI TAQDIM ETISH SHARTLARI

2.1 Talab qilib olguncha hisob raqamini yoki bank karta hisob raqamini dastlabki ochish mijozning arizasi asosida identifikatsiyalash tadbiri bo'yicha amalgga oshiriladi.

2.2 Bankning idensifikasiya qilingan mijozlari uchun talab qilib olguncha omonat hisob raqamini, shu jumladan, bank kartalarini ochish, shuningdek, milliy / xorijiy valyutadagi bank kartalarini chiqarish/qayta chiqarish, bank hisobraqamlarini blokirovka qilish/blokdan chiqarish, axborot xizmatlariga ularish (SMS-xabarnoma, E-MAIL, shaxsiy kabinet va/yoki mobil banking) bankning www.madadinvestbank.uz veb-saytida joylashtirilgan Mijozning arizasi asosida yoki Bank mobil ilovasi orqali amalgga oshiriladi. Bank kartasining tayyorligi to'g'risida bildirishnoma "Push" -

xabarnoma orqali mijozga yuboriladi, mijoz tomonidan kartani qabul qilib olish uning tegishli ravishda xujjalashtirilgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

2.3 Milliy va xorijiy valyutadagi hisobraqamlar va bank kartalari bo'yicha amaliyotlar bank tomonidan mijozning ko'rsatmalariga binoan va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.4 Mijoz o'zi tomonidan hisobraqam blokirovka qilingan taqdirda PIN-kodni tiklash masofadan turib xizmat ko'rsatishning Bankning rasmiy kanallari orqali amalga oshiriladi;

2.5 Axborot xizmatlariga ularish (SMS - xabarnoma, E-MAIL, shaxsiy kabinet va/yoki mobil banking) mijozning bank bo'limida shaxsiy ishtiroti yoki rasmiy masofadan xizmat ko'rsatish kanallari orqali mijozning arizasi asosida amalga oshiriladi.

2.6. Muddatli va jamg'arma omonatlarini ochish alohida tuzilgan shartnomaga asosida amalga oshiriladi (namunaviy shartnomalar www.madadinvestbank.uz bankning veb saytida mavjud).

2.7. Talab qilib olinguncha omonatlarga foiz stavkalar amaldagi bank tarifiga asosan hisoblanadi (www.madadinvestbank.uz bankning veb saytida mavjud).

2.8. Kelishilgan tartibda qoldiq mablag' saqlanmagan, muddati o'tgan bank kartalari va bir yildan oshiq muddatda harakatsiz bo'lган omonat hisob raqamlarining qoldiqlari, agar mijoz murojaat qilmagan taqdirda muddati o'tgan oydan e'tibor 29842 harakatsiz hisobraqamga o'tkaziladi.

2.9. Ushbu oferta shartnomasi bank tarifining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatları:

3.1.1. Mijozning omonatlarini va bank operasiyalarini sir saqlash va ular to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'lumot berish;

3.1.2. Mijoz yoki uchinchi shaxslardan omonatning tasdiqlangan shartlariga muvofiq omonatga naqd pul va naqd pulsiz shakldagi pul mablag'larini omonatchining omonati bo'yicha zaruriy ma'lumotlarini ko'rsatgan holda qabul qilish;

3.1.3. Mijozning yoki uning vakillarining birinchi talabiga binoan (ishonchnoma orqali yoki meros xuquqini tasdiqlovchi xujjalashtirilgan arizasi) hisob raqamlarga qo'yilgan mablag'larni, shuningdek, ushbu oferta shartnomasi shartlariga muvofiq hisoblangan foizlarni qaytarish;

3.1.4. Omonat bo'yicha foizlar Bank tomonidan olingen kundan keyingi kundan (mijozning shaxsiy hisobraqamiga) omonatchiga qaytarilishidan oldingi kungacha yoki boshqa sabablarga ko'ra omonatchining hisobraqamidan chiqarilishigacha hisoblanadi. Bank omonatchining hisobraqami xatlanganda ushbu hisob raqamidagi mablag'lardan foydalana olmaganligi davrida foiz hisoblamaydi;

3.1.5. Agar foizlarni o'tkazish sanasi bank ishlanmaydigan kuniga to'g'ri kelsa, u keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi;

3.1.6. Bank kartalarini belgilangan muddatda chiqarish/qayta rasmiylashtirish;

3.1.7. Mijoz bankka kelganda harakatsiz hisobraqamni blokdan chiqarishni amalga oshirish;

3.1.8. Axborot xizmatlariga mijozni ulab (SMS - xabarnoma, Push - xabarnoma (qisqa axborot xabarnomasi/xabar), E-MAIL, shaxsiy WEB - kabinet va / yoki mobil banking) mobil telefon raqami/ elektron pochta manzili, ushbu Shartnomanining 1-ilovasida ko'rsatilgan namunaga ko'ra dastur asosida login, parol va foydalanuvchi yo'riqnomalarini taqdim etish.

3.1.9. Mijozning yozma arizasiga ko'ra, boshqa mobil telefon raqamlarini, mijozning boshqa elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan, avvalgilarini o'chirib qo'yish;

3.1.10. Mablag'larni bank hisobraqamidan chiqarilishi to'g'risida, hisobdan chiqarilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, kimning foydasiga, sababi va chiqarilayotgan summaning miqdori ko'rsatilgan holda xabardor qilish;

3.1.11. Bank iste'molchining talabiga ko'ra hisob raqamiga aloqador bank xujjalashtirilgan arizasi asosida amalga oshiriladi;

nusxalarini bepul (bitta bank xizmatini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha bir marta) berishga majbur:

3.1.12. Mijozning bank hisob raqamlaridagi operasiyalarni bank operasiyalari to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, bank operasiyalarini to'xtatib turish sabablarini ko'rsatgan holda xabardor qilish.

Tegishli bildirishnoma mijozning o'z tanloviga ko'ra quyidagi yo'llar bilan mijozga yuboriladi:
 _____ (shaxsan);
 _____ (raqamli uyali telefon orqali);
 _____ (pochta orqali);
 _____ (elektron aloqa orqali: SMS - xabarnoma/ Push –xabarnoma/ elektron pochta manzili).

3.2 Mijozning majburiyatları:

3.2.1 Ushbu Shartnoma shartlariga rioxha qilish;

3.2.2 Bankning birinchi talabi bo'yicha hisob varaq ochish, bank operasiyalarini amalga oshirish uchun ishonchli ma'lumotlar hamda hujjatlarni taqdim etish;

3.2.3 Pasport ma'lumotlar, yashash joyi, ish joyi, aloqa telefon raqamlari yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, bu o'zgarishlar haqida bankni 3 (uch) bank ish kunida xabardor qilish, shuningdek, yangi pasport ma'lumotlari nusxalarini va ushbu shartnomaning 3.1 bandlarida ko'rsatilgan axborot xizmatlari ulangan mobil telefon raqami va/yoki, elektron pochta manzilini taqdim etish;

3.2.4 Bank kartasining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga yetib bo'lmaydigan joyda saqlash, bank kartasining shaxsiy ma'lumotlarini va PIN - kodini uchinchi shaxslarga bermaslik;

3.2.5 Muntazam ravishda bank hisobraqamlari/kartalari qoldig'ini tekshirish;

3.2.6 Bank kartasi balansida overdraftga yo'l qo'ymaslik ya'ni bank kartasidagi texnik overdraft yuzaga kelganda karta egasi uni qaytarishi shart;

3.2.7 Bank kartasi yo'qotilishi yoki o'g'irlanishi holatlarida bankni bank ish kunlari davomida yoki bankni 24 soat davomida rasmiy masofadan xizmat ko'rsatish kanallari orqali xabardor qilish shuningdek, bankning mobil ilovasi orqali kartani o'zi bloklashi;

3.2.8 Hisob raqam ochilmasidan avval Bankning www.madadinvestbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan tegishli mahsulot/xizmat ko'rsatmalari va qoidalari bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish.

3.2.9 Bank amaliyotlarini o'tkazishda hisobraqamlar bo'yicha amaliyotlar o'tkazish uchun www.madadinvestbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan tarif bo'yicha bank xizmati xaqqui to'lash.

3.2.10 Milliy valyutadagi hisob raqamidan foydalansa kamida 10 000 (O'n ming) so'm, AQSh dollaridagi hisob raqamidan foydalansa kamida 5 (besh) AQSh dollari, Yevrodaqil hisob raqamidan foydalansa kamida 5 (besh) Yevro qoldiq mablag'lar turishini doimiy ravishda ta'minlash.

3.2.11. Mijoz O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-sod bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari"ga qat'iy rioxha etadi.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobraqamidagi amaliyotlarni to'xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish;

4.1.2. Bank amaliyotlarini o'tkazishda hisobraqamlar bo'yicha amaliyotlar o'tkazish uchun bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorlarda komissiya haqini olish;

4.1.3. Omonat kitobchasi/bank kartasini yo'qotganlik/zarar yetkazganlik uchun bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorda komissiya haqini olish;

4.1.4. Bank mijozlarining hisobraqamlaridagi harakatlar bo'yicha axborot xizmatlari (mobil bank, sms, e-mail, web-axborot) uchun bank xizmatlari tariflari (mijozning xizmatlar ko'rsatish to'g'risida yozma arizasi asosida) bo'yicha komissiya undirish;

4.1.5. Mijozdan o'tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir xujjatlarni, shuningdek, pasport ma'lumotlari, yashash joyi va aloqa telefon raqamlariga kiritilgan har qanday o'zgarishlar haqida ma'lumotni talab qilish va olish;

4.1.6. Boshqa bank mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida mijozning ma'lumotlari va bank operasiyalarini tahlil qilish;

4.1.7. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan asoslar, halqaro talablar, shuningdek, qaysidir sanksiyalar mavjud bo'lgan taqdirda, oldindan ogohlantirmsandan hisob raqam bo'yicha amalga oshiriladigan operasiyalarni rad qilish yoki to'xtatish, va/yoki pul mablag'larini yoki hisob raqamni blokka qo'yish;

4.1.8. To'lov kartasidan foydalanuvchi tomonidan shartnoma talablari buzilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ushbu shartnoma bankning talabiga ko'ra bekor qilish va kartani bloklash xamda O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan norezident-mijozlar tomonidan respublika banklaridagi xisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi yoki xalqaro to'lov tizimining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda bank tomonidan bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin;

4.1.9. Mijoz tomonidan hisob raqamida mazkur oferta shartnomasining 3.2.11-bandida belgilangan qoldiqlar qolishi ta'minlanmasa bank shartnomani bir tomonlama bekor qilib hisob raqamlarni yopib yuborish xuquqiga ega. Bunda, bank tomonidan 3 kun muddat ichida mijozga kelishilgan aloqa tarmoqlari orqali xabar beriladi, mijoz tomonidan 3.2.11-banddag'i talablar bajarilmasa, mijoz tomonidan xisob raqamidagi qoldiq mablag'lar talab qilib olinmasa qoldiq mablag'lar bank daromadiga o'tkaziladi.

4.1.10. Bank O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari"ga qat'iy riosa etgan holda;

- Mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali amaliyotlar aniqlangan taqdirda bajarilgan amaliyotlarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatni ko'rsatishni to'xtatib turish, ushbu xizmatlarni ko'rsatishni rad etish;

- Mijoz shubhali amaliyotlar amalga oshirilganligi haqidagi gumanlar mavjud bo'lganda, xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada qayd etilgan shaxs tomonidan amaliyotlar amalga oshirilayotganligini mijozning joylashgan yeri (pochta manzili) shartnomada belgilangan manzil bo'yicha o'rganish huquqiga ega;

- Mijoz tomonidan shubhali amaliyotlar amalga oshirilganda, ushbu holatlarga aniqlik kiritilgunga qadar xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish;

- Mijoz jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida xizmatlardan foydalanilganligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo'lganda, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani o'rnatilgan tartibda bekor qilish;

- Mijozni u joylashgan yeri (pochta manzili) yoki ushbu shartnomada belgilangan manzilda o'rganish jarayonida, Bank mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi Nizom (ro'yxat raqami 2465, 2013 yil 3 iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2013 y., 23-son, 309-modda) talablariga rioxalashini, jumladan pul hisob-kitob xujjatlarining rasmiylashtirilishi, ularning mijozning vakolatli shaxslari (rahbari, bosh hisobchisi) tomonidan imzolanib tasdiqlanishi, ushbu xujjatlar bo'yicha o'tkazmalar faqat imzolash huquqi mavjud bo'lgan shaxs tomonidan tasdiqlangandan keyin amalga oshirilishiga, mazkur xujjatlarning saqlanishiga alohida e'tibor qaratadi.

- Mijozdan o'tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir xujjatlarni so'rash, talab qilib olish huquqiga ega.

4.1.11. Bank mijoz tomonidan taqdim etilgan to‘lov xujjati bo‘yicha xalqaro sanksiyalarga tushgan tushmaganligini, tushish xavfini tekshirishga xaqli.

4.1.12. Bank, mablag‘larni oluvchi (yoki uning bankining yoki sotib olayotgan maxsulotining va x.k.z) larning xalqaro sanksiyalarga tushganligi, tushish xavfi mavjud bo‘lganda, bank amaliyotini o‘rganish maqsadida qo‘sishimcha ma’lumotlarni so‘rash, amaliyot miqdorini chegaralash, amaliyotni cheklash (rad etish), to‘lov xujjatini ijroga qabul qilmaslik huquqiga ega yoki amalga oshirilayotgan amaliyotlar mijozning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo‘lgan hollarda xizmat ko‘rsatishni rad etish va mijoz bilan mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

4.1.13. Mijoz tomonidan o‘tkazilayotgan bank amaliyotlariga doir qo‘sishimcha xujjatlar bank tomonidan so‘ralgan yoki talab qilinganda xujjatlar mijoz tomonidan to‘liq taqdim qilinmasa, bank mijozning topshiriqlarini bajarmasligi, bank amaliyotini to‘xtatib qo‘yishi, bank hisob varag‘ini bir tomonlama bekor qilish xuquqiga ega.

4.2. Mijoz huquqlari:

4.2.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjalardida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, bank hisob raqamlarini shaxsan va o‘zining vakili orqali (ishonchnoma orqali) boshqarish;

4.2.2. Istalgan vaqtida bank hisob raqamidan yoki uning bir qismidan mablag‘ talab qilish;

4.2.3. Telefon, elektron pochta manzili va / yoki shaxsiy kabinet va / yoki rasmiy masofadan xizmat ko‘rsatish kanallari orqali axborot xizmatlaridan foydalanish;

4.2.4. Bankning www.madadinvestbank.uz rasmiy saytida joylashtirilgan va/yoki rasmiy masofadan xizmat ko‘rsatish kanallari orqali bank mahsulotlari, xizmatlari va tariflari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish;

4.2.5. Boshqa mobil telefon raqamlarini/elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga, shu jumladan avvalgisini o‘chirishga, yozma ariza bilan yoki mustaqil ravishda shaxsiy hisob raqami orqali va masofaviy xizmat ko‘rsatishning rasmiy kanallari orqali Bank bilan bog‘lanish orqali ulanish;

4.2.6. Masofaviy xizmat ko‘rsatishning rasmiy kanallari orqali yozma ariza yoki tegishli ariza yuborish orqali Bank tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar yoki boshqa xizmatlardan voz kechish;

5. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

5.1. Ushbu shartnoma muddatsiz hisoblanadi va taraflarning biri tomonidan bekor qilingan paytga qadar amal qiladi.

5.2. Ushbu shartnoma mijozning arizasiga ko‘ra istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.

5.3. Bank hisobvarag‘i shartnomasining bekor qilinishi mijozning hisobvarag‘ini yopish uchun asos hisoblanadi.

6. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Yengib bo‘lmaydigan epidemiya tarqalishi, karantin, yong‘in, suv toshqini, zilzila, elektr tarmog‘ining uzilishi/to‘xtatilishi va taraflar imkoniyatidan tashqari to‘siqlar (fors major holatlari) vujudga kelganda hamda shu kabi mavjud bo‘lgan boshqa holatlarda taraflar majburiyatlardan qisman yoki to‘liq ozod etiladi.

7.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar

7.2. Bank O‘zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida" gi Qonuniga muvofiq, mijoz tomonidan bank hisobraqamlariga kiritilgan mablag‘larning saqlanishini kafolatlaydi.

7.3. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

7.3.1. Uchinchi shaxslarga shaxsiy hisob raqamlariga va/yoki mobil bank xizmatlariga kirish uchun login va parolning mijoz tomonidan oshkor qilinganda;

7.3.2. Mijoz bank kartasini saqlash uchun tegishli chora-tadbirlar qabul qilmagan holda, karta shaxsiy ma'lumotlari mijoz tomonidan kartadan pul mablag'larini ruxsatsiz hisobdan chiqarish uchun karta shaxsiy ma'lumotlarini va PIN-kodni uchinchi shaxslarga internet yoki boshqacha tarzda oshkor qilinganda;

7.3.3. Mijoz tomonidan uchinchi shaxslarga mobil bank xizmatlari, SMS, Push-xabarnomasi va elektron pochta xabarnomalari orqali olingan ma'lumotlarni oshkor qilinganda;

7.3.4. Agar omonatchi uyali telefon raqamini yoki elektron pochta manzilini noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsa, shuningdek, agar u bankka axborot xizmatlariga ulangan uyali telefon raqamini yoki elektron pochta manzilini o'zgartirish to'g'risida ma'lumot bermagan bo'lsa, yuborilgan SMS va elektron pochta xabarlari yoki mobil bank xizmati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar oshkor bo'lganda.

7.4. Mijoz login/parolini oshkor qilish yoki boshqa shaxslarga mobil telefon raqamidan/elektron pochta manzilidan/shaxsiy kabinetdan/mobil bankdan foydalanishga ruxsat berish uchun javobgardir.

7.5. Mijoz karta shaxsiy ma'lumotlarini va PIN-kodni uchinchi shaxslarga o'tkazishda kartadan ruxsatsiz pul olish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

7.6. Bank tomonidan ish xaqi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun o'z vaqtida nakd pul bermaganlik uchun mijozlarga, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlariga ular hisobvaraqlarida mablag' bo'lganida bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,005 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.7. Bank mijozlar hisobvaraqlariga pullarni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish tartibini buzganlik uchun, elektron to'lovlarni amalga oshirishning va xato amalga oshirilgan elektron to'lovlarni qaytarishning o'rnatilgan muddatlarini buzishni istisno etgan holda, bank har bir holat uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,01 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.8. Bank elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda, u mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni shart.

7.9. Bankning aybi bilan elektron to'lov noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda, u mablag'ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kundan kechiktirmasdan oluvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart. Aks holda, mijoz bankdan mablag'larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summaning 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

7.10. Bank quyidagi hollarda jarima to'lashdan ozod qilinadi:

a) fors-major holatlari, shu jumladan, banklararo elektron to'lovlardan tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilish;

b) bank mijoji tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda;

v) qonunlarda (xalqaro sanksiyalar asosida) belgilangan tartibga bank yoki mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operasiyalar to'xtatilganda.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha yuzaga keladigan baxs va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Agarda ko'rsatib o'tilgan baxs va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan sud tartibida hal etiladi.

8.3. Taraflar dalil sifatida baxs yoki kelishmovchiliklarni hal qilishda amalga oshirilgan tranzaksiyalarni o'zida saqlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarga tayanishi mumkin.

8.4. Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo'yib qabul qilib olganligi yoki manziliga pochta orqali yuborilganligi to'g'risida pochta kvitansiyasi mavjud bo'lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingen deb hisoblanadi.

9. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH TARTIBI, BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur oferta shartnomasi, mijoz tomonidan akseptlangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi hamda hisob raqam yopilgunga qadar amalda bo'ladi.

9.2. Mazkur ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagisi O'RQ-547 sonli "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq, Mijozga doir har qanday, shu jumladan avtomatlashtirilgan ma'lumotlarga ishlov berish va saqlash, shuningdek Mijozga doir ma'lumotlarini yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, foydalanish, berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, shuningdek ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga olshirish uchun Shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berilishiga o'z roziligidagi beradi."

9.3. Shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

9.4. Ushbu shartnoma mijozning talabiga binoan istalgan vaqtida bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha to'lovlar amalga oshirganidan keyin bekor qilinishi mumkin.

9.5. Shartnomani bekor qilinishi, hisob varag'ni yopish uchun asos bo'ladi.

9.6. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

10. BANKNING REKVIZITLARI

Oferta beruvchi yuridik manzili:

«Madad Invest Bank» ATB

Manzil: Farg'ona sh., Mustaqillik 312 uy.

MFO: 01142; STIR: 207 246 047

Telefon: (99873) 241-70-43,

Veb sahifa: www.madadinvestbank.uz

2-ilova

boshqaruvchisiga

filial nomi

dan

mijoz nomi

ARIZA

(talab qilib olinguncha, muddatli, jamg'arma omonati, bank kartasi nomi va boshqalar)

hisobraqami ochishningizni so'rayman. Hisob varag'im bo'yicha operasiyalarni amalga oshirishda shart bo'lishi hisoblanadigan imzolarim (Men tomondan vakolat berilgan shaxslarning imzolari) namunalarini ma'lum qilaman.

Sana _____ y.

(hisob raqami egasining imzosi)

BANK BELGISI

Hisobvaraq ochish bo'yicha hujjatlarni tekshirdim: Bosh buxgalter _____

(imzo)

Hisobvaraq ochishga ruxsat beraman: Filial boshqaruvchisi/Menejer
Hisobvaraq _____ yilda ochildi.

(imzo)

Hisobvaraq raqami №_____ bank kartasi raqami _____
Boshqa belgilar

Pasport, № va seriya: _____ berilgan _____

Amal qilish muddati _____ gacha

Qo'shimcha ma'lumot:

Rezident/norezident _____, tug'ilgan sanasi _____ tug'ilgan joyi _____

Yashash manzili _____

Ish joyi manzili _____

Lavozimi _____

Aloqa telefonlari: _____ Aloqa e-mail manzili _____

*Men bank hisob raqamlarini ochish va bank operasiyalarini amalga oshirishda bankning barcha yo'reqnomalari
(oferta shartnomasi) bilan qo'yidagi yo'llar asosida tanishdim va to'liq javohgarlikni o'z zimmamga olaman*

www.madadinvestbank.uz rasmiy sayti _____ mobil ilova _____ qog'oz shakli

(hisob raqam egasining imzosi)